

FORTEPIANO YARALISH TARIXI VA RIVOJLANISHI

Muallif: Termiz davlat Pedagogika instituti

Jismoniy madaniyat va san'at fakulteti

Musiqiy ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Baxtiyorova Munisa Norbekovna

Ilmiy rahbar: Termiz davlat Pedagogika instituti

Musiqi mahorati va madaniyati kafedrası

katta o'qituvchisi, dots.v.b.

Raxmatullayev Xumoyun Shafoatovich

Annotatsiya. Ushbu maqolada fortepianoning ta'rifi va kelib chiqishi, uning tuzilishi va asosiy qismlari, klavish bosilishi va mexanizmlarning harakati, torlarning tebranishi va hosil bo'lishi, rezonans va tovushlarning kuchayishi, damperlarning roli, pedallar va ularning tovushga ta'siri, tovushlarning so'nishi, fortepianoning turlari, akustik xususiyatlari va fortepianoning musiqa olamidagi o'rni haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: fortepiano, Bartolameo Cristofori, klavish, torlar tebranishi, rezonans, damper, pedal, tovush, klaviatura, diapason, elektron datchiklar, Motsart, Betxoven, Shopen, Raxmaninov, Steinway, Yamaha, Kawai.

Fortepiano- bugungi kunda dunyodagi eng mashhur va keng tarqalgan cholg'u asboblardan biri bo'lib, uning tarixi bir necha asrlarni qamrab oladi. U ilk bor XVIII-asr boshlarida italiyalik usta Bartolomeo Cristofori tomonidan ixtiro qilingan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan ko'plab texnik akustik o'zgarishlarga uchragan. Fortepianoning yaratilishi klavikord va klavesin kabi cholg'u asboblarning rivojlanishiga asoslangan bo'lib, uning eng katta innovatsiyasi- ijrochiga tovush balandligini imkoniyatini beruvchi bolg'acha mexanizmi edi.

Fortepiano- italyancha so'z bo'lib, "forte" – baland, "piano" – past degan ma'noni anglatadi. Bu musiqa asbobi klavishli, torli musiqa asbobi bo'lib, keng dinamik

diapazonga ega. Bu asbob XVIII-asrda italiyalik Bortolomeo Cristofori tomonidan ixtiro qilingan. Uning asosiy farqi – torlarga bolg’achalar urilishi natijasida turli kuchlanishda tovush hosil qilish imkoniyatidir.

Fortepiano quyidagi asosiy qismlardan iborat:

- rezonans korpusi- tovushni kuchaytiruvchi yog’och korpus;
- rasmalar va torlar- turli uzunlik va qalinlikdagi metal torlar tovush diapazonini hosil qiladi;
- bolg’achalar- klavish bosilganda torlar urilib tovush chiqaradi;
- pedallar- tovishni kuchaytirish va uzaytirish uchun xizmat qiladi.

Fortepiano klavish bosilganda torlarga bolg’achalar urilishi orqali tovush hosil qiladigan mexanik-akustik cholg’u asbobidir. Uning ishlash prinsipi bir necha bosqichlardan iborat.

Har bir klavish ichki mexanizm bilan bog’langan. Klavish bosilganda quyidagi jarayonlar sodir bo’ladi:

- 1.Klavish pastga bosilganda, uning orqa tomoni yuqoriga ko’tariladi.
- 2.Klavish bilan bog’langan tutqich mexanizmi ishlaydi va bolg’acha harakatga keladi.
- 3.Bolg’acha (hammer) tezlik bilan tegishli torni uradi.

Bolg’acha torni urishi natijasida tor tebrana boshlaydi. Torning tebranishi havo orqali rezonans hosil qilib, tovush chiqishiga sabab bo’ladi. Torlarning uzunligi va qalinligi tovush balandligini belgilaydi, ya’ni qisqa va ingichka torlar yuqori chastotali, uzoq va qalin torlar past chastotali tovushlar chiqaradi.

Torlar o’z-o’zidan uncha baland hosil qilmaydi. Torlarning tebranishi fortepianoning rezonans taxtasi orqali kuchaytiriladi. Rezonans taxtasi yog’ochdan yasalgan bo’lib, u torlar hosil qilgan tovush to’lqinlarinibutun asbob bo’ylab tarqatadi.

Fortepianoda damperlar tovushni tebranishini to’xtatadi. Agar klavish qo’yib yuborilsa damper torni bosib, tebranishni to’xtatadi va tovush o’chadi. Damperlar ko’tarilib, torlar erkin tebranishi va uzoq davom etishi uchun sustain pedali bosiladi.

Fortepiyanoda odatda 2 yoki 3ta pedal bo'ladi. Sustain, soft va sostenuto pedallari. Sustain pedali (o'ng pedali)- barcha damperlarni ko'tarib, tovishning davomiyligini oshiradi.

Soft pedali (chap pedal)- bolg'achalar torlarga yengilroq urilib, yumshoq va past tovush hosil qiladi.

Sostenuto pedali (o'rta pedal, hamma pianinolarda emas)- faqat hozir bosilgan notalarning damperlarini ko'tarib, ularning uzoq davom etishini ta'minlaydi.

Agar klavish qoyib yuborilsa va sustain pedali qoyib yuborilmagan bo'lsa, damper torni bosib, tovush tezda o'chadi.

Fortepiano oilasi juda katta bo'lib, hozirgi kunda biz uning Royal, pianino va elektron fortepiano turlarini ko'proq uchratishimiz mumkin.

Royal – katta konsertlarda ijro etish uchun mo'ljallangan bo'lib, u gorizontal joylashgan torlar sistemasiga ega.

Pianino – uyda, dars jarayonida ishlatish uchun mo'ljallangan va vertical torlar sistemasiga egadir.

Electron fortepiano – ovoz electron datchiklar orqali hosil qilinadi.

Fortepianoning klavesindam ustunliklaridan biri bu uning dinamikasi va akustika xususiyatidir. Fortepiano 88-ta klavishga ega bo'lib, ularning diapazoni taxminan 27,5 Gs – 4186 Gs orasida. Torlarning uzunligi, qalinligi va tarangligi tovush balandligi va tembrini belgilaydi. Shunday qilib fortepiano keng dinamik diapazon va kuchli rezonansga ega bo'lgan murakkab akustik tizimiga ega cholg'u hisoblanadi.

Fortepiano asbobi klavikord va klavesin kabi avvalgi klavishli cholg'ularning rivojlangan shakli bo'lib, uning asosiy afzalligi- ijrochiga tovush balandligini nazorat qilish va keng dinamik diapazonda o'ynash imkoniyatini berishidir. Rivojlanish jarayonida texnologik takomillashtirishlar natijasida fortepiano yanada boy tembrga, kuchli rezonansga va ifodaviylikka ega bo'ldi. Bugungi kunda u klassik, jazz va zamonaviy musiqada eng asosiy cholg'u sifatida xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Pollens, Stewart. The Early Pianoforte. Cambridge University Press, 1995.

2. Good, Edwin M. Giraffes, Black Dragons, and Other Pianos: A Technological History from Cristofori to the Modern Concert Grand. Stanford University Press, 2001.
3. Schick, Robert D. The Piano: A History. Rowman & Littlefield, 2016.
4. Isacoff, Stuart. A Natural History of the Piano. Knopf, 2011.
5. "Fortepiano" maqolasi, O'zbekcha Vikipediya.
6. "Fortepiano" maqolasi, Inglizcha Vikipediya.
7. Shaxnazarova, Barno. Xonandalik uslubiyoti asoslari. Buxoro davlat universiteti elektron kutubxonasi.
8. Shamaxmudova, Barno. Xor fanlarini o'qitish uslubiyoti.